O‘ZBEKISTONDA KO‘ZI OJIZLARNING ISHLAB CHIQARISHDAGI ISHTIROKI (1991–2025-YILLAR)

Furqat N. Bozorov
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, tayanch doktorant, Toshkent, O‘zbekiston
furqattarixchi@gmail.com; ORCID: 0009-0007-3342-9400; Tel: +998936780288
UDK: 94(575.1):796

Annotatsiya. *Maqolada 1991–2025-yillarda O‘zbekistonda ko‘zi ojizlarning ishlab chiqarishdagi ishtiroki, xususan, O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati tizimidagi o‘quv-ishlab chiqarish korxonalarining bu boradagi o‘rni tarixiy va siyosiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot ilk bor ilmiy muomalaga kiritilayotgan O‘zbekiston Milliy arxivi va O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati arxivi hujjatlari hamda normativ-huquqiy hujjatlarga asoslangan. Sovet davrida davlat buyurtmasi, sanoat kooperatsiyasi va imtiyozli xomashyo asosida shakllangan korxonalar tizimining kamchiliklari, mustaqillikning dastlabki yillarida xo‘jalik aloqalarining uzilishi natijasida yuz bergan inqiroz va korxonalarning yopilish sabablari ochib berilgan. 2006-yildan korxonalarning MChJ shakliga o‘tkazilishi va paxtani qayta ishlashga ixtisoslashuvi, 2017-yildan keyingi islohotlar – imtiyozli paxta ajratishning to‘xtatilishi, soliq rejimining o‘zgarishi, davlat xaridi kvotalari va inklyuziv bandlikni rag‘batlantirish choralarining korxonalarga ta’siri baholangan. Tahlil natijasida korxonalarda ishlab chiqarish hajmi oshgan holda ko‘zi ojiz ishchilar soni 1991-yildagi 5533 nafardan 2024-yilda 917 nafarga qisqargani, jamiyat tizimidan tashqarida ishlovchi ko‘zi ojizlar ulushi 1991-yildagi 19 foizdan 2024-yilda 61 foizga oshib, bandlikning asosiy qismi tizimdan tashqarida shakllanayotgani hamda davlat siyosati korxonalarni imtiyozlash yondashuvidan barcha ish beruvchilarni rag‘batlantirish yondashuviga o‘tgani asoslab berilgan.*

Kalit so‘zlar: *ko‘zi ojizlar, mehnat bandligi, ixtisoslashgan korxonalar, inqiroz, islohotlar.*

Аннотация. *В статье с исторической и политической точек зрения анализируется участие незрячих в производстве в Узбекистане в 1991–2025 годах, в частности роль учебно-производственных предприятий системы Общества слепых Узбекистана. Исследование основано на впервые вводимых в научный оборот документах Национального архива Узбекистана и архива Общества слепых Узбекистана, а также на нормативно-правовых актах. Раскрыты недостатки системы предприятий, сложившейся в советский период на основе государственного заказа, промышленной кооперации и*

льготного сырья, кризис, вызванный разрывом хозяйственных связей в первые годы независимости, и причины закрытия предприятий. Оценено влияние на предприятия их преобразования с 2006 года в общества с ограниченной ответственностью и специализации на переработке хлопка, а также реформ после 2017 года – прекращения льготного выделения хлопка, изменения налогового режима, квот государственных закупок и мер стимулирования инклюзивной занятости. В результате анализа обосновано, что при росте объёма производства численность незрячих работников на предприятиях сократилась с 5533 человек в 1991 году до 917 в 2024 году, доля незрячих, работающих вне системы общества, выросла с 19 % в 1991 году до 61 % в 2024 году, и основная часть занятости формируется за пределами системы, а государственная политика перешла от подхода, основанного на льготах для предприятий, к стимулированию всех работодателей.

Ключевые слова: *незрячие, трудовая занятость, специализированные предприятия, кризис, реформы.*

Abstract. *The article analyses, from historical and political perspectives, the participation of blind people in production in Uzbekistan in 1991–2025, in particular the role of the training and production enterprises of the Society of the Blind of Uzbekistan. The study is based on documents of the National Archive of Uzbekistan and the archive of the Society of the Blind of Uzbekistan, introduced into scholarly circulation for the first time, as well as on legal and regulatory acts. It reveals the shortcomings of the system of enterprises formed in the Soviet period on the basis of state orders, industrial cooperation and preferential raw materials, the crisis caused by the breakdown of economic ties in the first years of independence, and the reasons for the closure of enterprises. The article assesses the impact on the enterprises of their transformation into limited liability companies from 2006 and their specialisation in cotton processing, as well as of the reforms after 2017: the end of the preferential allocation of cotton, changes in the tax regime, state procurement quotas and measures to encourage inclusive employment. The analysis shows that, while production volumes grew, the number of blind workers at the enterprises fell from 5,533 in 1991 to 917 in 2024; that the share of blind people working outside the Society's system rose from 19 % in 1991 to 61 % in 2024, so that most of their employment now takes shape outside the system; and that state policy has shifted from granting privileges to enterprises towards encouraging all employers.*

Keywords: *blind people, employment, specialised enterprises, crisis, reforms.*

Kirish

Mehnat bilan bandlik ko‘zi ojiz insonning jamiyatdagi mustaqil o‘rnini belgilovchi asosiy omillardan biridir. O‘zbekistonda ko‘zi ojizlar bandligi qariyb bir asr davomida O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyati (keyingi o‘rinlarda – O‘zKoJ) tizimidagi o‘quv-ishlab chiqarish korxonalari (keyingi o‘rinlarda – O‘IChK) bilan bog‘liq holda kechgan. Maqolada O‘zbekiston Milliy arxivi va O‘zKoJ arxivi hujjatlari va normativ-huquqiy hujjatlar asosida bu korxonalarning mustaqillik yillaridagi taqdiri, mahsulotlari, hamkorlari hamda 2017-yildan keyingi islohotlarning ularga ta’siri tahlil qilinadi.

1. Mustaqillik arafasida ko‘zi ojizlar ishtirokidagi ishlab chiqarish tizimi va uning muammolari

Ko‘zi ojizlar uchun dastlabki ustaxonalar 1920-yillar oxirida ochilib, 1938-yilga kelib ularda 600 nafar ko‘zi ojiz chiy, bo‘yra, savat va arqon tayyorlagan [1, B. 17–19]. 1950–1980-yillarda ustaxonalar O‘IChK va kombinatlarga aylandi, ularda texnik cho‘tka, karton, plastmassa buyumlari ishlab chiqarildi, paxta tolasi va lint esa davlat tomonidan imtiyozli narxlarda ajratildi [2a, №1/02-231]. Korxonalar davlat zavodlari bilan kooperatsiya asosida ishlagan. 1989-yilda jamiyat korxonalarida 5524 nafar ko‘zi ojiz mehnat qilgan [3, 3616-yig‘majild, 26-varaq]. Shunga qaramay, arxiv hujjatlari sovet davrining so‘nggi yillarida tizimda jiddiy muammolar to‘planganini ko‘rsatadi. 1988-yilgi tekshiruvda Toshkent ishlab chiqarish kombinati, Sariosiyo, Ulug‘bek va Qarshi korxonalari sexlarida evakuatsiya rejalari yo‘qligi, chiqish yo‘llari chiqindi va tayyor mahsulot bilan to‘sib qo‘yilgani, asosiy omborda yong‘in signalizatsiyasi bo‘lmagani aniqlangan; ko‘zi ojiz ishchilar uchun bu ayniqsa xavfli edi [3, 3599-yig‘majild, 5–6-varaqlar]. 1989-yilning 8 oyida ishlab chiqarish bazasini kengaytirish uchun rejalashtirilgan kapital mablag‘ning atigi 54,1 foizi o‘zlashtirilgan, Ulug‘bek korxonasi qurilishida reja 29,6 foizga bajarilgan [3, 3616-yig‘majild, 42–43-varaqlar]. Jamiyatning yordamchi xo‘jaligida 1990–1991-yillarda sholi, yeryong‘oq va mosh rejadagidan bir necha baravar kam olingan, mahsulot ruxsatsiz begona tashkilotlarga sotilgan [3, 3707-yig‘majild, 52–53-varaqlar]. 1991-yilda esa 401 nafar ko‘zi ojiz ishga joylashtirilgani holda 1200 nafar ko‘zi ojiz ish bilan ta’minlanmay qolgan [3, 3662-yig‘majild, 49-varaq]. Bundan tashqari, bu tizim to‘liq davlat buyurtmasi, kooperatsiya va markazlashgan xomashyo ta’minotiga bog‘liq edi. Uskunalarning eskirgani va kooperatsiya buyurtmalarining qisqarayotgani O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1990-yil 28-iyundagi 251-son qarorida ochiq tan olingan [3, 251-son qaror, 133–134-betlar].

2. 1991–2016-yillarda ko‘zi ojizlarning ishlab chiqarishdagi ishtiroki: inqiroz va moslashuv

Sovet Ittifoqining parchalanishi korxonalar uchun eng og‘ir sinov bo‘ldi. 1992-yilda xomashyo narxlari oshib, mahsulot tannarxi 3–4 baravar ko‘tarilgan, talab tushib, ko‘zi ojiz ishchilar bekor turib qolgan [3, 3710-yig‘majild, 8-varaq]. 1993-yilda jamiyatning 34 ta korxonasidan Rossiya xomashyosi bilan ishlaydigan 8 tasi muntazam ishlay olmagan, chunki tashqi davlatlarga pul o‘tkazish imkoni bo‘lmagan [3, 3789-yig‘majild, 1-varaq]. 1999-yil yakunida korxonalarda ish haqi qarzi 12,7 mln so‘mga yetgan, ayrim joylarda ish haqi pul o‘rniga mahsulot bilan berilgan [3, 3956-yig‘majild, 13–15-varaqlar]. Toshkent cho‘tka va karton kombinatining texnik cho‘tkalari paxta mavsumi tugagach sotilmay omborda qolgan, asosiy xaridor “O‘zpaxtasanoatsotish” esa unga 12,2 mln so‘m qarzdor bo‘lgan [3, 3894-yig‘majild, 67–68-varaqlar]. 2003-yilga kelib butun tizimda atigi 2300 nafar ko‘zi ojiz ishlagan [1, B. 29–30].

Inqiroz bir qator korxonalarning yopilishiga olib keldi. Asaka korxonasi 2001-yilda bankrot bo‘lgan [4, 2003, №3, B. 2], 2013-yildan butunlay to‘xtagan; Q. Primqulov nomidagi sobiq “Sverdlov” kombinati mulkining katta qismi 2008-yilda sotilgan, Toshkent O‘IChK tugatilgan [1, B. 159, 398, 412]. Sirdaryo korxonasida xomashyo yetishmagani va mahsulotga talab yo‘qligi sababli 2015-yildan tikuv va to‘quv sexlari to‘xtab, ishchilar ishsiz qolgan [5b, 55, 56, 66-varaqlar]. Yopilishning asosiy sabablari xo‘jalik aloqalari va kooperatsiyaning uzilishi, xomashyo qimmatlashuvi, xaridorlarning yo‘qolishi, qarzdorlik, uskunalar eskirishi va ayrim rahbarlarning noto‘g‘ri xo‘jalik yuritishi bo‘ldi.

2006-yildan korxonalarga mas’uliyati cheklangan jamiyat (MChJ) maqomi berilib, ular soliqlarning bir qismidan ozod bo‘ldi. Natijada mahsulot hajmi 2004-yildagi 1,97 mlrd so‘mdan 2008-yilda 8,3 mlrd so‘mga oshdi [4, 2009, №5, B. 2–3]. Hududlarda sho‘ba korxonalar tuzildi: 2014-yilda “Metallurg KoJ” korxonasida respublikada birinchi marta ko‘zi ojizlar uchun hassa ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi [5a, 72-varaq]. Biroq o‘sish asosan paxtani qayta ishlash hisobiga bo‘ldi: 2016-yilda korxonalar daromadining 90 foizi paxta bilan bog‘liq bo‘lib, avtoyopqich, bo‘z va noto‘qima matolarni “O‘zpaxtasanoat” korxonalari xarid qilgan [5c, 3-varaq]. Bu jarayon ko‘zi ojiz mehnatini kam talab qilgani uchun 2014-yilda korxonalardagi 1699 nafar xodimdan faqat 1109 nafari ko‘zi ojizlar edi [5a, 49-varaq].

3. 2017-2025-yillardagi Islohotlar davrida ko‘zi ojizlarning ishlab chiqarishdagi ishtiroki: imtiyozlardan inklyuziv bandlikka

Islohotlar korxonalarga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatdi. Bir tomondan, PQ-3386-son qarorga ko‘ra 2018-yildan paxta tolasi va lint birja orqali sotiladigan bo‘lib, korxonalar 50-yillardan beri foydalangan imtiyozli xomashyodan mahrum

bo‘ldi [2b, 353-varaq]. 2019-yil 1-yanvardan esa yirik korxonalar umumbelgilangan soliqlarga o‘tkazildi. Jamiyat bu holat “1700 nafarga yaqin ko‘zi ojiz va boshqa sog‘lom fuqarolar”ning ishsiz qolishiga olib kelishini hukumatga yozgan [2b, 100-varaq]. Jamiyat hisobiga ko‘ra, 1991-yildan 2018-yilgacha korxonalar soni 21 tadan 69 taga ko‘paygan holda ulardagi ko‘zi ojizlar soni 5533 nafardan 1006 nafarga tushgan [2a, №1/01-104.

Ikkinchi tomondan, davlat yangi qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy etdi. Prezidentning 2019-yil 23-avgustdagi PQ-4423-son qarori bilan xodimlarining kamida 50 foizi nogironlar bo‘lgan korxonalar foyda solig‘i, QQS va mol-mulk solig‘idan ozod qilinib, ular uchun davlat xaridi kvotalari belgilandi [6]. Kvotalar ijrosi dastlab sust kechgan bo‘lsa-da [7a, №1/01-39.], davlat xaridi orqali sotilgan mahsulot 2020-yildagi 3,1 mlrd so‘mdan 2021-yilda 17,1 mlrd so‘mga oshdi. Korxonalar paxtaga qaramlikdan chiqa boshlab, 2021-yilda 24 turdagi yangi mahsulotni o‘zlashtirdi, paxtadan boshqa mahsulotlar ulushi 59 foizga yetdi [1, B. 93, 97]. Mebel, tikuv va matbaa yo‘nalishida “Go‘zal yurt ravnaqi”, “Kumush orzular”, “KOJ Ezgu niyat”, “KOJ Shifo” kabi yangi korxonalar tuzildi [7b, 87, 94, 96-varaqlar; 7c, №1/07-244; №1/07-246]. Marg‘ilon korxonasi Mudofaa vazirligining 6000 dona qishki kurtka xaridi tanlovida g‘olib bo‘ldi [7b, 86, 100-varaqlar].

Islohotlar korxonalarning hamkorlik doirasini ham o‘zgartirdi. Paxta tozalash korxonalari to‘qimachilik klasterlariga o‘tgach, avvalgi asosiy hamkor – “O‘zpaxtasanoat” tizimi o‘rnini davlat buyurtmachilari egalladi. Xalqaro aloqalar esa kamligicha qoldi: eng yirik urinish “Qo‘qon saxovat nuri” korxonasining 2020-yilda Tojikiston va Rossiya firmalari bilan 650 ming AQSh dollarlik paxta sellyulozasi eksporti bo‘yicha shartnomalari bo‘ldi [7a, №001/EX, №002/EX. 16, 18, 19, 25, 31, 43, 47, 48, 55, 62-PDF].

Keyingi yillarda davlat siyosati alohida korxonalarni qo‘llab-quvvatlashdan barcha ish beruvchilarni rag‘batlantirishga o‘tdi. 2020-yilgi O‘RQ-641-son Qonun bilan nogironlar uchun 3 foizlik ish o‘rni kvotasi belgilandi [6], PQ-4423-son qaror 2024-yilda o‘z kuchini yo‘qotdi [6], 2025-yil 8-maydagi PF-85-son Farmon bilan nogironlarni ishga olgan barcha ish beruvchilarga ijtimoiy soliq imtiyozi va subsidiyalar joriy etildi [6]. Natijada 2024-yilda ish bilan band 3433 nafar ko‘zi ojizdan faqat 917 nafari O‘zKoJ korxonalarida, 2108 nafari esa jamiyat tizimidan tashqarida ishlagan [7d, 5-varaq]. Taqqoslash uchun, 1991-yilda ishlovchi ko‘zi ojizlarning 19 foizi jamiyat korxonalaridan tashqarida mehnat qilgan bo‘lsa, 2019-yilda bu ko‘rsatkich 43 foizga yetgan [1, B. 14, 77], 2024-yilda esa 61 foizni tashkil etgan.

Xulosa

Sovet davrida shakllangan ko‘zi ojizlar korxonalari tizimi davlat buyurtmasi va kooperatsiyaga to‘liq bog‘liq bo‘lgani uchun mustaqillikning dastlabki yillarida chuqur inqirozga uchradi, ulardagi ko‘zi ojizlar soni ikki baravardan ko‘proq qisqardi, bir qator korxonalar yopildi. 2000-yillarda MChJ maqomi va paxtani qayta ishlash korxonalarni saqlab qoldi, ammo ko‘zi ojizlar uchun ish o‘rinlarini ko‘paytirmadi. 2017-yildan keyingi islohotlar imtiyozli xomashyoni bekor qilib, korxonalarni yangi sinov oldiga qo‘ydi, davlat xaridi kvotalari esa ularning mahsulot turlarini kengaytirishga turtki berdi. Shu bilan birga, ko‘zi ojizlar bandligining asosiy qismi endi jamiyat korxonalaridan tashqarida shakllanmoqda. Bu davlat siyosatining korxonalarni imtiyozlash yondashuvidan inklyuziv bandlik yondashuviga o‘tganini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Norpo‘latov E. Tarix ko‘zgusida: Monografiya. – Toshkent: “IJOD-PRESS” nashriyoti, 2024.

2. O‘zKoJ A: a) chiqish xatlari 1-320 gacha, 2019-yil; b) chiqish xatlari 83-84-157-158-241-242-320, 2019-yil.

3. O‘zMA, R-2370-fond, 1-ro‘yxat, 3599, 3616, 3662, 3707, 3710, 3789, 3894, 3956-yig‘majildlar; O‘zMA. O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1990-yil 28-iyundagi “O‘zbekiston ko‘zi ojizlar jamiyatining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ijtimoiy sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 251-son qarori.

4. “Bir safda” jurnali. – 2003. – №3; 2009. – №5.

5. O‘zKoJ A: a) chiqish xatlari 1-108, 2015-yil; b) Fuqarolar murojaati, 2016-yil; c) chiqish xatlari 43-113, 2016-yil.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-avgustdagi PQ-4423-son qarori; O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-641-son Qonuni; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-maydagi PF-75-son va 2025-yil 8-maydagi PF-85-son Farmonlari // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. – https://lex.uz [Murojaat qilingan sana: 12.10.2026].

7. O‘zKoJ A: a) chiqish xatlari 1-115, 2020-yil; b) chiqish xatlari 524-713, 2022-yil; c) chiqish xatlari 113-305, 2023-yil; d) O‘zKoJ joriy arxivi. XIX Qurultoy hisoboti, 2024-yil.